

J.N.Xalilov

Buxoro davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi

Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

ark-bukhara@yandex.ru

BUXORO MUZEYI ZARGARLIK VA MISGARLIK TO'PLAMI: SEHRLI QO'LLAR MO'JIZASI

Annotatsiya. Mazkur maqola Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ko'rgazma va fond saqlov xonalarida turgan noyob zargarlik san'ati namunalari-ayollar sirga'alari va bo'yinosti bezaklari, bilakuzuk, zargarlik buyumlari saqlangan sandiqchalar, kamarbandlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ot bezaklari, shuningdek Buxoro amirligida faoliyat yuritgan zargarlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zirak, "Sandiqcha", "Peshband", "Xafaband", "Katmola", cho'kichlash, kandakori, minokori, saroy zargarlari.

КОЛЛЕКЦИЯ ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЙ И МЕДИ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ: ЧУДО ВОЛШЕБНЫХ РУК

Аннотация. В этой статье рассказывается об уникальных образцах ювелирного искусства, выставленных в экспозиционных и фондохранилищах Бухарского государственного музея-заповедника, -женских серьгах и ожерельях, браслетах, сундуках с драгоценностями, камарбандах, предметах домашнего обихода, украшениях для лошадей, а также о ювелирах, работавших в Бухарском эмирате.

Ключевые слова: Зирак, "сундук", "Пешбанд", "хафабанд", "катмола", раковина, кандакори, минокори, дворцовый ювелир.

BUKHARA MUSEUM'S JEWELRY AND COPPER COLLECTION: A MIRACLE OF MAGIC HANDS

Annotation. This article describes the unique examples of jewelry art displayed in the exhibition and storage facilities of the Bukhara State Museum-Reserve-women's earrings and necklaces, bracelets, jewelry chests, camarbands, household items, jewelry for horses, as well as jewelers who worked in the Bukhara Emirate.


Keywords: Zirak, "chest", "Peshband", "hafaband", "katmola", shell, kandakori, minokori, palace jeweler.

Har bir joyda bo'lgani kabi Buxoro hukmdorlari saroyida ham chiroyli tayyorlanganligi bilan kishi e'tiborini tortadigan noyob zargarlik buyumlari- sandiqchalar, la'lilar, qanddon, qadah, shamdonu lampalar, beshik quballariyu Qur'oni karim jildlari kabi yuzlab ashyolar XIX asr oxiri -XX asr boshlarida yashab ijod qilgan zargarlarning mohirligidan darak beradi. Zargarlar o'z faoliyatlarida bir necha hunarni bir- biriga moslab ish yuritganligini ko'rish mumkin. Oddiy bir sandiqchani tayyorlash jarayonida zargar o'ymakorlik, hallash, qoraytirish, qadama, hattotlik kabi usullardan foydalangan. Albatta saroydagi har bir idish yoki buyum kumushdan tayyorlangan, keyingi jarayonlarda uni tilla suvi bilan hallash, o'ymakorlik bilan bezagan. O'ymakorlik ko'p chiqur amalga oshirilmagan. Chunki, keyingi jarayonda o'ymakor qilingan joylar turli rangli emal bilan bo'yab chiqilgan. Ayniqsa, yashil, zangori ko'k, oq ranglar ko'p qo'llanilgan. Kolleksiyadan 100 dan ziyod mahalliy hamda rus o'ymakor-zargar ustalar tomonidan tayyorlangan turli uy-ro'zg'or va amaliy san'at namunalari o'rin olgan. Ular foydalanish turiga qarab turli bo'limlarga ajratilgan.



36714/22-². Ayollar ziragi. Tilla. Kimeriktepa. Er.av. XV asr

Buxoroning zargarlik san'ati an'analari tarixi asrlar qa'riga yetib boradi. Varaxsha saroyining devoriy rasmlaridagi va o'ymakorlik bezaklarida tasvirlarga ko'ra, zargarlik buyumlari faqat bezak sifatidagina qo'llanilmay, balki undan himoya vositasida ham foydalanilgan. Varaxsha saroyining devoriy rasmlarida ostin-ustin joylashgan bo'yin va ko'krak bezakli chavandoz tasviri saqlanib qolgan. Bilakda tilla bilakuzuklar tasvirlangan, oyoq va qo'llar esa tasma yoki metall xalqalar tarzidagi moslamalar bilan himoyalangan.



36714/22-¹. Ayollar ziragi. Tilla. Kimeriktepa. Er.av. XV-X asrlar

Turli shaharlarda, jumladan Buxoroda arxeologlar tomonidan aniqlangan ko'plab zargarlik ustaxonalari, do'kon va hatto mahallalarning qoldiqlari IX-XIII asrlarda Movarounnahrda zargarlik san'atining keng rivojlanganidan dalolat beradi.

Amaliy san'at rivojlangan XIV asr ikkinchi yarmi – XV asrga oid zargarlik san'ati haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan, ustalar yasagan buyumlar namunalari esa saqlanib qolmagan. Ularning mavjudligidan esa arxeologlar Buxoroda o'tkazgan qazishmalari vaqtida topgan zargarlik ustaxonalari ashyolari dalolat beradi. Mavjud savdo hujjatlari XIV – XVI asrlarda yashagan bir qancha zargarlarning nomlarini bizgacha saqlab kelgan. Chunonchi, Buxoro yaqinidagi Tavois shahrida 1489 yilda Husaynning o'g'li Muhammad zargar zargarlik buyumlarini yasagan. XV asrning ikkinchi yarmida bu yerda usto Ali zargar (vafoti 1490 y) ishlagan. Tavoisda Zargar kanali bo'lib, ehtimol u zargarlarning mahallasi bilan bog'liqdir. Buxoroda hoji Bobo Do'stning o'g'li usto Husayn zargar, xoja Boqiy, xoja Hasan zargarlar tilga olinadi.



495/8. Amir Olimxon ayolining tilla ziragi. Oltin, ametist, berill, turmalin, daryo marvarida, shisha

20

XVIII asrda Buxoroda zargarlar ko'p bo'lgan. Oltin, kumush, la'l, marvarid, yoqut, zumrad, feruza, aqiq, lojuvard va boshqa toshlar turli usullarda ishlov berilganidan keyin jozibali, ko'rkam buyumlar yaratish uchun keng imkoniyat tug'ilgan. Ayol va erkaklar bezaklari, bundan tashqari, zodagonlar uchun badiiy bezakli qurol va ot abzali tayyorlashgan. Ayollar uchun zargarlik bezaklari nihoyatda xilma-xil bo'lgan: zirak, bilakuzuk, ro'mol to'g'nog'ichi, shokilalar, tugma, to'qa, tumor, marjon va boshqalar.

Buxoro XIX asrda ham zargarlik san'atining eng yirik markazlaridan biri edi. Zargarlar ko'p millatli bo'lib, ular orasida o'zbeklar, tojiklar, yahudiylar, forslar, hindlar, kavkazliklar, lo'lilar va boshqalarni uchratish mumkin edi. Mirbahrom, Mirma'ruf Garifov, Mirxo'ja Mamajonov, Said A'lo, qori Sharif, Mirakram Po'latov, Mirfozil Kamoliddin to'qsabo, usto Abdug'ani kabi ustalar juda mashhur edi.



2139/8. "Sandiqcha". Kumush, tilla suvi, qadama, hal. Buxoro. XIX asr

Muzey qimmatbaho va nodir kolleksiyalari ichida eng ahamiyalaridan biri zargarlikka oid saroy buyumlari va ayollar taqinchoqlaridir. Bu kolleksiya o'zining betakrorligi, badiiy qiyomati, rang-barangligi, shakllarining nafisligi va Buxoro zargarlik maktabiga xos ijro uslubi bilan ajralib turadi.



20076/8 "Xafaband"-ayollar bo'yin taqinchog'i. Kumush, asl marjon. Buxoro. XIX asr
Ayollarning bo'yin bezagi. Marjon shodalaridan iborat, har biri o'rtasida kumushdan baliq ko'rinishdagi bezaklar kiydirilgan taqinchoq. "Marjon" markazida kumush tumor o'rnatilgan.

Zargarlik to'plami ayollar, erkaklar, bolalar taqinchoqlari, uy-ro'zg'or va maishiy buyumlarning ajoyib namunalari, hukmdor va saroy ayonlari buyurtmasiga ko'ra Qushbegi Ostonqul, Qushbegi Urganjiylar nazorati ostida Arkoni davlat qarorgohi Ark qo'rg'oni o'rdasida faoliyat ko'rsatgan 20 dan ortiq saroy zargarlari tomonidan yasalgan saroy buyumlari, beshik qubbalari, Qur'oni Karim g'ilofi, kumush chiroq, shamdon, sharobdon, ayollar zebe-ziynatlari saqlanadigan kumush, oltin suvi bilan hallab, kandakori qilinib, minakori uslubida emallangan

sandiqchalar, ryumkalar, laganlar, kosalar, shokosalar, piyola, sharob saqlovchi kovushlar, shamdonlar, likobchalar, la'li-podnoslar, tabaqlar, qadahlar, oftoba, dastsho'y, kalendar va boshqalar to'plamning asosini tashkil etadi. Kumushdan yasalgan bejirim kandakori naqshlar o'yib rangbarang emal bilan minokori qilib yasab, zumrad, feruza, yoqut, aqiq toshlari qadab tilla bilan hallangan betakror kamarbandlar, hukmdorlar otlarini bezatgan ot jabduqlari esa ko'p asrlik an'anaga ega Buxoro zargarlik maktabining betakror namunalari sanaladi. Ularning aksariyati Buxoro so'nggi hukmdoridan xazinasidan qolgan buyumlar hisoblanadi.



4134/8. "Gardanband"-amir otining ko'krak bezagi. Kumush plastina, tilla suvi, aqiq, charm. Detal. Buxoro. XIX asr. Olti qator bosma plastinkalardan iborat. Uchlarida 14 tadan "islami" naqshli bezak. Markazida 3 ta aqiqi bor to'qa o'rnatilgan. Yon tomonlarida 8 ta aqiqi bor. Astari charmdan.

Buxoro zargarlari tilladan ko'ra kumushga ishlov berishni yoqtirganlar. Ayniqsa, kumushni yarim qimmatbaho toshlar, jumladan, dur, feruza, aqiq, la'l, yashma, asl yoqut, zumrad, sadaf, marjonlar bilan bezash ajoyib an'ana bo'lgan. Ustalar faqat kamdan-kam hollarda amir va uning yaqin kishilari uchun yasalgan buyumlarga tilla va brilliantlar bilan ishlov berishgan. Ustalar murakkab naqshli va nihoyatda qimmatbaho toshlar bilan bezatgan bunday buyumlar Arkdagi xazinaxonada saqlangan.



2288/8. "Qoshiqi la'li". Kumush, tilla suvi, hal. Buxoro. XX asr boshi. Kumushdan tayyorlangan la'li 12 ta kungiralik bo'lib, chetlari bir oz ko'tarilgan. "Islimi" naqshlar bilan bezatilgan. Markaziy doira atrofi asosi yashil va ko'k rangli arkalar bilan bezatilgan. Markaziy fonda fors tili arabiy yozuvda "Tuhfe Buxoroyi sharif. 1327" berilgan

Buxoro zargarlari qo'llagan san'at usullari ham xilma-xildir. Chunonchi, ular o'ymakorlik, cho'kichlash, kandakori, haqqoqi, to'rsimon-shabaka, bosma, qadama, qoraytirish(chern), minokori-emallash, hallash-ya'ni oltin suvi yugurtirish va boshqalar shular jumlasidan. Bu borada buxorolik zargarlar tenggi yo'q usta, yuksak mahoratli zargar darajasiga erishganlar. Shuningdek Amir Nasrullo (hukmronlik yillari 1826-1860 yy) davrida Kavkazdan dog'istonlik ustalar ham Buxoroga taklif qilingan. Ular tayyorlagan buyumlar "Qubochi" nomi ostida mashhur bo'lgan.



Buxoro amirligida yashab, ijod qilgan kubachilik zargar-ustalar.

Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasida XIX-XX asr boshlariga oid 1000 dan ortiq eksponatni o'z ichiga olgan zargarlik to'plami tashkil etadi. To'plam negizini Mang'it amirlari sulolasidan qolgan mulk tashkil etadi. Ular orasida erkaklar, ayollar va bolalar zargarlik taqinchoqlari, oltin va kumush tangalar, orden va medallar, muhrlar, ot abzallari, qurol-yaroq va idish – tovoqlardir. To'plamda Buxoro vohasida istiqomat qilgan o'zbek, tojik, turkman, qozoq, tatar, arab va kavkazliklarning zargarlik buyumlari tomoshabinlar "Sitorai Moxi-Xossa" xalq amaliy bezak san'ati muzeyining dastlabki ikki zalida zardo'zlik san'ati namunalari bilan hamohang namoyish qilingan ot jabduqlari, dauri-chepraklar fonida, ayollar taqinchoqlari va kamarlar, zardo'zi namoyonlar hamrohligida ko'rsatilgan. Buxoro zargarlik maktabiga hos sipohlik, ortiqcha unsurlardan xoli tumorlar, ziraklar, bilakuzuk-dastponalar, nozigardonlar, xafabandlar, tillaqoshlar, poncha, to'f, moxi-tillalar va tilla noychalar yuksak mahorat namunalari sifatida har qanday kishini lol qoldiradi.



11052/8.

22833/8



Ayollar taqinchoqlari. Kumush, asl marjon, shisha. Buxoro. XIX asr. Marjon shodasi o'n dona kumush tangalar bilan birgalikda ipga o'tkazilgan

Bunday buyumlar ayol zotiga atalgan o'ziga xos madhiya bo'lib, ularning nafis boshlari, yorug' peshonalari, tiniq chakkalari, nozik burunlari, kichik quloqlari, qora qirg' o'rim sochlari,

egilgan zulflari, oppoq bo'yin va ko'kraklari, xushbichim bel va yelkalari, sadafdek bilak va barmoqlarini bezash uchun yasalgan.

Xalq amaliy san'atining nihoyatda keng rivojlangan qadimgi turlaridan biri bo'lgan zargarlik san'ati bizning davrimizgacha ham ahamiyatini saqlab qolgan. Bu san'at qadim davrlardan beri boy an'analariga ega bo'lgan. Asrlar mobaynida uning yirik maktablari shakllangan. Ana shunday o'zining boy va betakror tarixiga ega markazlardan biri Buxoro zargarlik maktabidir.



20724/8. "Katmola"-ayollar taqinchog'i. Tilla, la'l. Buxoro. XIX asr

Ayollar bo'yin bezagi-18 dona la'l, shaftoli va xrizolitdan iborat tabiiy toshlardan va 6 dona shishadan tayyorlangan.

Buxoro zargarlari uzuk, zirak, bilaguzuk, marjonga o'xshagan keng tarqalgan va kundalik taqishga mo'ljallangan sodda zeb-ziynatlar bilan birga yuksak mahorat talab qiladigan o'ta murakkab naqshli zargarlik buyumlarini ham yasashgan.

Ishlov berilishi va xilma-xil shakli bilan ayollar libosiga mo'ljallangan buyumlar g'oyat serbezak bo'lgan. Ular ayollarning go'zal libosiga mo'ljallangan bo'lib, g'oyat nozik va nafis ko'rinishga egadir.

Zargarlik buyumlari erkaklar libosi to'plamiga ham kirgan. Kuyovning sallasidagi jig'a, ismi yozilgan muhrli uzuk, naqshband to'qali qimmatbaho metall va toshlar qadalgan kamarlar, dastasi bezatilgan pichoq, xanjar, qilichlar va boy ayonlarning ot ulovlari egar va jabduqlari, xonlarning taxti ravoni, toj va sultonlari shular jumlasidandir.



28266/8. Ayollar bilakuzugi. Tilla. "Shabaka" uslubi. Buxoro. XIX asr. "To'qima" uslubda oltindan tayyorlangan. Proba-750, og'irligi-37,94gr, h-2,2sm, d-5,9sm

Buxoro zargarlarining ishlagan buyumlarida manbai, shakllari va ranglarining ritmikasida, chiziq va sathlarning mavzuliliga ko'plab shakllarning harakatchanligida, ta'sirchanlik kuchini

- 24 oshirganliklarini ko'ramiz. Zargarlar yasagan buyumlarning ko'pchiligi bir-birining rangini ochib turuvchi oltin suvi bilan hallangan, kumush bilan marjon va firuza toshlari birikmasi asosida yasalgan.



22474/8

22409/8

"Panchpoya" (Kundalsozi)- ayollar ziraklari. Buxoro. XIX asr. Nozik to'qima uslubida kumushdan tayyorlanib, oltin suvi yuritilgan zirak marvarid, la'l, firuza toshlari qadab ishlangan.

XIX asrning oxirida Buxoro zargarlik maktabi san'atida ikkita yo'nalish ko'zga tashlanadi. Jumladan aholining o'ziga to'q qismiga mo'ljallangan bashangdorlik va dabdabadorlikka asoslangan eklektika-modern ko'rinishidagi buyumlarning dunyoga kelishi va ikkinchisi jamiyatning demokratik qatlamiga mo'ljallangan haqiqiy xalq san'ati an'analari saqlangan sodda va puxta, qadimiy davrlardan rivojlanib kelayotgan ko'rinishini ifodalagan bejirim ko'rinishli buyumlardir.

XIX asrning oxiriga kelib Buxoroda 400 dan ortiq mohir zargarlar faoliyat ko'rsatganlar. Ulardan eng mashhurlari: Usta Qori Sharif To'qsabo, Usta Mirbobo, Usta Nasri, Usta Muhammad Badaviy, Usta Kamol, Usta Ali, Usta Umri, Usta Mir Fozil, Usta Hikmat, Usta Kamolliddin, Usta G'iyos, Usta Qosim Miroqov, Usta Hoji Qo'chqorov, Usta Sadriddin bin Pochchalar bo'lgan.

Zargarlik to'plamining asosiy qismi XIX asr oxiri - XX asr boshlariga taalluqlidir.



1772/8



1478/8.

Amirlar kamarbandi. Kumush, tilla suvi yuritilgan. Buxoro. XIX asr. Kamarlar charm asosda baxmal matosida zardo'zlik va zargarlik uslubida kumushdan tayyorlanib, tilla suvi yuritilgan, tirdon va hamyonlar bilan bezatilgan.

Buxoro muzeyi mang'it amirlari kolleksiyasining bir qismini saroy oshxona jihozlari tashkil etadi. Ashyolarning aksariyat qismi mahalliy kandakor-zargar ustalar tomonidan tayyorlangan bo'lsa, bir qismi Rossiya va Yevropadan amirlarga tuhfa sifatida olib kelingan. XVIII asrda Buxoro kandakorlik markazlaridan biri bo'lib qoldi. Quyma qismi bolg'alab yasalgan ko'zalar, choynak, patnis, kosa, oftobalar yarqiroq va jilosiz metall ko'rinishini hosil qiluvchi nozik o'ymakor va yassi-bo'rtma chekma usulida bezatilgan. Kompozitsiya jihatdan naqsh idish

shaklining arxitektonikasini belgilaydi va uyg'un yaxlitlikni hosil qiladi. Palma bargiga taqlidan barg va nilufarli yorqin islmiy naqsh hukmronlik qilgan nafis o'simlik geometrik va epigrafik bezakdan unumli foydalanilgan.



5084/8



12093/8

Amirlik saroyidagi buyumlar. Kumush, hal. XIX asr. Tayyorlanish uslubiga ko'ra ko'za XIX asr birinchi yarmiga xos hamda ilk hallash uslubi qo'llanilgan amirlik idishlari sirasiga kiradi. Sakkiz qirralik la'li esa Buxoroga rus mahsulotlarining kirib kelishi bilan o'z ta'sirini ko'rsatganligining guvohidir.

Idishlar ko'rkamligi, mutanosibligi va shaklining tozaligi bilan ajralib turgan. Bir qancha idishlarda ijodkorlar: XVIII asr boshlarida usto Shokir, XVIII asr oxirida kandakor usta Barotboy, XIX asr birinchi yarmida yashab ijod etganusto Do'stmuhammad Hoji Ibrohim nisbasi qayd etilgan.



2286/8



2102/8.

Buxoro amiri shaxsiy kolleksiyasidan. Kumush idishlar. XIX asr. "Urganji" oftobasi dastasiz, kumushdan ishlanib, emallangan. "Qanddon" - kumushdan tayyorlangan hamda tilla suvi bilan hallangan, rangdor emallar bilan naqshlangan.

Buxoroning XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi kandakorligi ayniqsa qiziqarli. Buxoro ustolarining yaratgan buyumlari shaklining risoladagidek nafisligi, nisbatlarining mumtoz tarzidagi muvozanati, odatda chuqur o'yish texnikasi yordamida bajarilgan bezak ijrolarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Buxoro kandakorligi boshqa maktablarga qaraganda kam o'zgargan va ko'pgina qadimiy shakl va an'anaviy bezaklarni saqlab qolgan. Buxoro bezagiga tekis, anchagina keng, ustalar "kundal" deb yuritadigan kontur chiziqlar alohida ta'sirchanlik kasb

26 etadi. Bu maktab kalligrafik yozuvlardan maromida foydalanib, u bilan buyumlarning ayrim qismlari- ko'za tanasi, bo'yni, bandlari, patnislarning keng tub qismini va hokazolarni bezatishgan.



Buxoro amiri shaxsiy kolleksiyasidan. Kumush idishlar. XIX asr 2098/8 (Ko'za), 2059/8(la'li), 2113/8(dastasiz ko'za), 2274-2278/8(qadahlar). Amirlar yozgi saroyida yevropalik mehmonlar uchun foydalanilgan.

Buxoro mintaqaviy kandakorlikning yirik markazi edi va bu yerga Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalaridan ustalar o'z malakasini oshirish uchun kelishgan. XIX asr Buxoro kandakorligi mohir san'atkorlarining nomlari tarix sahifalaridan o'rin olgan: Salohiddin, Mirza, Sharof, Hakim Buxoriy, Rustammuhammad Rizo.



*193/3
2372/3.
Mis oftobalar. O'ymakorlik, qadama. Buxoro, XIX asr.*

XX asr boshlarida Buxoroda 600 ga yaqin misgarlar bo'lib, shularning 50 nafarigina yuksak badiiy ijod qilganlar. Mir Sharif, Muqaddam Ma'sum, Muhammad Hasan, Ollohyor Yo'ldoshev va boshqalar shular jumlasidandir.

Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasi zahira fondlarida saqlanayotgan mis kandakorligi san'ati to'plami alohida o'rin tutadi. To'plamda XVIII- XIX asrlarga oid 3000 dan ortiq buyum mavjud. Ekspozitsiyalarning bir qismi Buxoroning so'nggi amiri Sayyid Olimxon mulkidan qolgan - mis kandakorligi ashyolaridan iborat. Ikkinchi qismi mahalliy aholi sovg'a qilgan, shuningdek muzey ilmiy xodimlari tomonidan yig'ilgan va sotib olingan ekspozitsiyalardir. Muzey to'plamida Buxoro maktabidan tashqari Samarqand, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Qarshi va Shahrisabz, shuningdek Eron, Turkiya, Hindiston, Rossiya va Afg'oniston badiiy kandakorlik maktablari tomonidan taqdim etilgan buyumlar bo'lib, ular XVIII-XX asrlarga taalluqlidir.



2377/3 Oftoba. Mis, o'ymakorlik. Buxoro, XIX asr

Muzey- qo'riqxonada mis o'ymakorligi to'plamiga maishiy va xo'jalik buyumlari (choydish, oftoba, samovar, qumg'on, la'li, kosa, shokosa, sarxumi, chelak va h), askar libosi anjomlari (sovutlar, zirh, dubulg'a, qalqon, o'q-yoy, tabarzin va h), diniy buyumlar (chilkalit, kashkul, shamdon, panja, isiriqdon va h). Zargarlik buyumlari orasida ayollar boshga taqadigan bezaklari, shuningdek manglay, chakka, bo'yin, ko'krak bezaklari, sirg'alar, bilakuzuklar, uzuklar va tumorlar alohida o'rin tutadi. Kumush idishlar, shuningdek Buxoro amiri mulkidan maishiy buyumlar to'plami alohida e'tiborga molik, ular la'lilar, qadahlar, oshxona ashyolari, qutilar, sandiqchalar, Qur'on jildlari, Rossiya va Yevropa davlatlaridan, shuningdek Turkiston general-gubernatorligi sovg'alaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Bulatov. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati". Toshkent. "Mehnat". 1991 y. 302-314 b.
2. Faxretdinova D.A. Yuvelirnoe iskusstvo Uzbekistana. Toshkent. G'. G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti. 1988 y. 64 bet.
3. Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasi Bosh kirim kitobi (KP). 52-tom
4. Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasi Bosh kirim kitobi (KP).1-tom
5. Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasi Bosh kirim kitobi (KP).2-tom
6. Buxoro davlat muzey- qo'riqxonasi Bosh kirim kitobi (KP).8-tom